

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BEKNAZAROV FARXOD ABDIVAXIDOVICH

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARIDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Beknazarov Farxod Abdivaxidovich

О‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini
oshirish yo‘llari 3

Бекназаров Фарход Абдивахидович

Пути повышения эффективности использования возможностей
паломнического туризма в Узбекистане 29

Beknazarov Farkhod Abduvakhidovich

Ways to improve the efficiency of using the opportunities of pilgrimage
tourism in Uzbekistan 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BEKNAZAROV FARXOD ABDIVAXIDOVICH

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARIDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt905 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasi (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ibadullayev Nurali Eshniyazovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Mirzayev Abdullajon Topilovich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «_____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ kuni tarqatildi
(2023-yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muhammedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pandemiya infeksiyasi tufayli juda katta zarar ko'rgan turizm sohasini bugungi kunda jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "2019-yilda dunyoda 1,5 milliard xalqaro sayohat amalga oshirilib, turizm jahon yalpi ichki mahsulotining 7%ini ta'minlagan. Ammo 2020-yilgi pandemiya infeksiyasi tufayli turizm sohasi tom ma'noda to'xtab qoldi. Jahon yalpi ichki mahsuloti pasayishining 70 foizii turizmdagi yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan"¹. Bugungi kunda turizmning aholi turmush darajasini oshirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra sohani jadal rivojlantirish, ayniqsa ixtisoslashtirilgan yo'nalishlari, jumladan ziyorat turizmini ustuvor rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda turizm sohasini innovatsion rivojlantirish, istiqbolli turlarini ustuvor tashkil qilish, soha resurslaridan maqsadli va samarali foydalanish, turistik xizmatlar nomenklaturasini ko'paytirish kabi yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada pandemiya va postpandemiya sharoitida turizm xizmatlar bozorini jadal rivojlanish, istiqbolli turizm turlarini, jumladan ziyorat turizmini samarali tashkil qilish, hududlarning ziyorat turizmi jozibadorligini oshirish, turizm infratuzilmalarini innovatsion asosda rivojlantirish bo'yicha chuqur ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda turizm industriyasini zamonaviy asoslarda barqaror rivojlantirish, jahonda muhim ahamiyat kasb etgan ziyorat turizmini rivojlantirish innovatsion infratuzimalarni barpo etish, sohaning jozibadorligini oshirish, turistik salohiyatdan maqsadli foydalanish, kadrlar malakasini zamonaviy texnologiyalar asosida tizimli oshirish, sohaga IT texnologiyalarini keng jori qilish kabi tadbirlar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasining ziyorat turizmi yo'nalishidagi ulkan salohiyatidan kelib chiqib, mamlakatimizda mavjud madaniy merosga qardosh millat va elatlarni keng jalb qilish, yosh avlodning xalqlarimiz tarixi va milliy-madaniy merosiga mehrini oshirish, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, umumturkiy madaniy merosni birgalikda dunyoga targ'ib qilish, bozorning turli segmentlariga yo'naltirilgan sayyohlik mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, maqbul holda qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish"² kabilar maqsad qilib olindi. Mazkur maqsad doirasidagi vazifalarni bajarishda, jumladan ziyorat turizmini jadal rivojlantirish, ziyorat turizmining yangi marshrutlarini ishlab chiqish, ziyorat turizm ob'ektlari jozibadorligini oshirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-

¹ <https://news.un.org/ru/story/2022/01/1416522>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 июлдаги ПҚ-338-сон қарорига 1-илова.

quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlan-tirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida", 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqa-ruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2018 yil 3-fevraldagi PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida», 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-son «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida», 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-il 19-iyundagi PQ-4755-son "Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasi va uning turli shakllarini rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar³, jumladan: A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.A.Jukova, M.B.Birjakov, Yu.A.Barzikin, N.I.Kabushkin, R.V.Kolotova, A.E.Saak, V.A.Kvartalnov, A.D.Chudnovskiy, F.Sherer, A.B.Kosolapov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan⁴ K.X.Abduraxmonov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.T.To'xliyev,

³Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.– 464 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. -М.: Финансы и статистика, 2003. –176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. – Издание 9-е переработанное и дополненное.– СПб.: «Издательский дом Герда», 2007. – 576 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. - 160 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. -409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избр. произведения: В 4-х т. -М.: Финансы и статистика, 2002. – 499 с.; Саак А.Э., Пшеничных Ю.А. Менеджмент в социально-культурном сервисе и туризме. -СПб.: Питер, 2006. – 512 с.; Чудновский А.Д., Жукова М.А. Менеджмент в туризме и гостиничном хозяйстве. - М.:КНОРУС, 2005.– 320 с.; 698 с.; А.Б.Косолапов Туристское страноведение. Европа и Азия: учебно – практическое пособие. – 2-е изд., стер– М.2006-400с.

⁴ Абдурахмонов К. Туристическая индустрия в условиях пандемии. Туризмда инновацион-инвестиция жараёнларини ривожлантириш истикбол-лари. / 2020 йил 3 июн. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд, СамИСИ, 2020.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. -Т.: Гос.науч.изд-во «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006. – 424 с.; Тухлиев И. ва бошқа муаллифлар. Туризмни режалаштириш. Дарслик. -Т.: "Iqtisod-Moliya" нашриёти, 2010. – 238 б.; Пардаев М.,

M.M.Muhammedov, B.N.Navro‘z-zoda, T.Doschanov, D.X.Aslanova, B.X.Turayev, A.F.Saidov, O.H.Hamidov, N.E.Ibadullayev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, A.A.Xudoyorov va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Ammo, bevosita O‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini ilmiy jihatdan asoslash, mamlakatimizning ziyorat turizmi salohiyatidan samarali foydalanishni ta‘minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan. Shu tufayli, bularning barchasi mazkur dissertatsiya ishi mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyotni va turizim sohalarini jadal rivojlantirish sharoitida ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Ziyorat turizmi” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyatini asoslash, ziyorat turizmi resurslari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini baholash;

O‘zbekistonda ziyorat turizmi industriyasining rivojlanish holatini hamda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish va baholash;

ziyorat turizmini rivojlantirishning xalqaro tajribalari va ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish yo‘llarini aniqlash;

Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. -Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.; Мухаммедов М. ва б. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризми ривожлантиришнинг назарий асослари. С.: 2007. – 299 б.; Навруз-зода Б. ва б. Туристтик ҳудуд рақобатбардошлиги. Монография. Б.: 2017. – 156 б.; Досчанов Т., Рўзметов Б. Туризмни ривожлантиришда музейлар фаолиятига рақамли технологияларни қўллаш масалалари. – Самарқанд, СамИСИ, 2021 й. 103-107 б. Асланова Д. Модели формирования туристского кластера за рубежом. «Сервис» илмий оммабоп журнали, 2013. №1; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. -Т.:«Фан», 2009. – 154 с.; Саидов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан: Дисс. док. экон. наук. -Т.: 1994. - 252 с.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: Дисс. канд. экономических наук. -С.: СамИСИ, 2006. -155 с.; Ибадуллаев Н.Э. Туристтик ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имкониятлари (Самарқанд вилояти мисолида). и.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация. -С.: 2010; Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. – Т.: Fan, 2011.; Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация. –С.: 2020. -275 б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. Монография.-Т.: 2016.-184 б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. Монография. Т.: 2015. -300б. Норчаев А.Н. Халқаро туризм ривожланишининг иқтисодий ўсишга таъсири (Испания мисолида): и.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация. -Т.: 2004. -136 б., Xudoyarov A.A. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy jihatlari. “Islom ziyosi” ilmiy jurnali. O‘zXIA.4-son 2019yil.

ziyosat turizmini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va “Virtual olamni” tashkil qilish yo‘llarini aniqlash;

yangi yo‘nalishlardagi ziyosat turizmi marshrutlarini ishlab chiqish va xalqaro turizm bozoriga integratsiya qilish yo‘llarini aniqlash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining, xususan Samarqand viloyatining ziyosat turizmi resurslari olingan.

Tadqiqotning predmetini ziyosat turizmi rivojlantirish va samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kuzatish, abstrakt-mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, SWOT tahlili, iqtisodiy-matematik, regression tahlil, ekstropolyatsiya va ilmiy ekspeditsiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ziyosat turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda turistlarga defferensial yondashuvga ko‘ra muqaddas qadamjolarini ziyosat qilishni tashkil qilish yuzasidan “diniy” va “ziyosat” turizmi tushanchalarining mohiyati takomillashtirilgan;

ziyosatchi turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar faoliyat samaradorligi va boshqaruv natijadorligini oshirishda “Ziyosat turizmida xizmat ko‘rsatuvchi shaxs modeli” barcha yo‘nalishdagi (kasbiy, iqtisodiy, ma’naviy, etik, psixologik va b.) talablar kompleksiga ko‘ra takomillashtirilgan;

hududlarning ziyosat turizmi tarkibi va geografiyasini kengaytirish, tashrif buyuruvchilar sonini orttirish hamda jahon ziyosat turizmi bozori segmentida mustahkam o‘rinni egallash yuzasidan IT texnologiyalariga ko‘ra turizmni tashkil qilish shakllari, xalqaro turizm bozoriga integratsiyalash tizimi takomillashtirilgan hamda “virtual ziyosat olami” platformasini tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

ziyosat turizmiga oid muqaddas qadamjolar, obektlar va ziyosatgohlar tarkibini takomillashtirish asosida tashriflar sonining hududlar kesimidagi ko‘rsatkichining Samarqand viloyatida 2023-2026 yillarda rivojlanishining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ziyosat turizmi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ziyosat turizmini rivojlantirishning xalqaro tajribalari va ulardan O‘zbekiston sharoitida ziyosat turizmini rivojlantirish bilan bog‘liq omillar tizimi takomillashtirilgan;

ziyosat turizm ob’ektlariga turistik marshrutlar ishlab chiqishning muhimlik darajasi va imkoniyatlarini baholash orqali “muqaddas qadamjolar oltin xalqasi”ni tashkil etish asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani hamda xulosa, taklif va

tavsiyalarning amalda sinovdan o'tgani, shuningdek, olingan natijalarning amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar ziyorat turizmi samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga hamda mavzu bo'yicha ilmiy loyihalarning ilmiy-azariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Madaniyat va turizm vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida hamda sohasini rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va amaliy tadbirlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ziyosat turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda turistlarga differensial yondashuvga ko'ra muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishni tashkil qilish yuzasidan "diniy" va "ziyosat" turizmi tushunchalarining mohiyatini takomillashtirish takliflari 5610300-"Turizm (xalqaro va ichki turizm)" ta'lim yo'nalishining talabalari uchun tayyorlangan "Mintaqaviy turizm" nomli o'quv qo'llanmasiga kiritilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 2 noyabrdagi 1023-sonli buyrug'i, 1023-0872 raqamli guvohnoma). Ilmiy natijaning joriy qilinishi turistik xizmatlar sohasida "diniy" va "ziyosat" turizm tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tizimli va kengroq tushunishini ta'minlash orqali o'qitish sifati va turistik xizmatlar samaradorligini oshirishda qo'shimcha uslubiy imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qilgan;

ziyosatchi turistlarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar faoliyat samaradorligi va boshqaruv natijadorligini oshirishda "Ziyorat turizmida xizmat ko'rsatuvchi shaxs modeli" barcha yo'nalishdagi (kasbiy, iqtisodiy, ma'naviy, etik, psixologik va b.) talablar kompleksiga ko'ra takomillashtirish Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan "Turkiy dunyo doirasida "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 21-dekabrdagi 04-18/8063-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi xizmat ko'rsatuvchi xodimning, jumladan vaziyatni ob'ektiv baholashi hamda muammolarni hal qilishda ijodiy va innovatsion yondashishiga xizmat qilish imkoniyatlarini kengaytirgan;

hududlarning ziyorat turizmi tarkibi va geografiyasini kengaytirish, tashrif buyuruvchilar sonini orttirish hamda jahon ziyorat turizmi bozori segmentida mustahkam o'rinni egallash yuzasidan IT texnologiyalariga ko'ra turizmni tashkil qilish shakllari, xalqaro turizm bozoriga integratsiyalash tizimi takomillashtirish hamda "virtual ziyorat olami" platformasini tashkil qilish bo'yicha takliflar Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan "Xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston

Respublikasining ziyorat turizmi salohiyatini manzilli targ'ib qilish chora-tadbirlari rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 21-dekabrda 04-18/8063-son ma'lumotnomasi). Mazkur natijaning amaliyotga joriy qilinishi yangi yo'nalishlardagi ziyorat turizmi marshrutlarini ishlab chiqishda hududlar qamrov darajasini oshirish, ziyorat turizmi salohiyatini targ'ib qilish, potensial turistlar oqimining o'sishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

ziyosat turizmiga oid muqaddas qadamjolar, obektlar va ziyoratgohlar tarkibini takomillashtirish asosida tashriflar sonining hududlar kesimidagi ko'rsatkichining Samarqand viloyatida 2023-2026 yillarda rivojlanishining prognoz parametrlaridan Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan "O'zbekiston Respublikasidagi yirik moddiy madaniy meros ob'ektlarida ichki turizm oqimlarini shakllantirish rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Turizm va madaniy meros vazirligining 2022 yil 21-dekabrda 04-18/8063-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognozlashtirish natijalariga ko'ra Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni hamda mehmonxona va shu yo'nalishdagi joylashtirish ob'ektlariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar sonining oshirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 6 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta va 1 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uning nazariy masalalari**" deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasining resurslari, turlari, shakllari va ularning ilmiy-nazariy asoslari, "Ziyorat turizmi" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati hamda xalqaro ziyorat turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va bugungi kundagi ob'ektiv zarurati bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Respublikamizning ko'pgina hududlaridagi tarixiy, diniy-ziyosat obidalari, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjidu madrasalarini qaytadan tiklash va ta'mirlash ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Buning natijasida turistik resurslarning soni yanada ko'paydi va ularning ahvoli ancha yaxshilandi. Bu esa turizm sohasining rivojlanishida, ayniqsa ziyosat turizmning barqaror rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda.

O'zbekistonda ziyosat turizmi sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda hamda bu soha rivojlanib borayotganligi sababli islom diniga e'tiqod qiluvchi va musulmon aholiga ega bo'lgan ko'plab davlatlardan musulmon turistlar tashrif buyurmoqda. "Jahonda 1,6 milliarddan ortiq musulmonlar bo'lib, dunyoning deyarli barcha mintaqasida musulmonlar yashaydi. Indoneziya (260 mln.), Malayziya (32 mln.), Pokiston (150 mln.) singari mamlakatlarning fuqarolarini ziyosat turizmi maqsadida Buxoro, Samarqand, Toshkent va Termiz shaharlarida joylashgan muqaddas qadamjolarga jalb etish O'zbekiston uchun ulkan imkoniyatdir. Ushbu shaharlarda joylashgan muqaddas qadamjolar, avliyolar va ulamolarning maqbaralari, qadimiy masjid va madrasalar, muqaddas qo'lyozmalarni ko'rsatish turizm salohiyatini yaxshilashga turtki bo'lishi turgan gap"⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev turizmni izchil rivojlantirish istiqbollariga bag'ishlangan yig'ilishda "O'zbekiston ham sayohat, ham ziyosat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta"⁶, – deb ta'kidlagan edi. Haqiqatan ziyosat turizmini rivojlantirish va bu orqali turizm sohasini yangi bosqichlarga olib chiqish uchun mamlakatimiz boy turistik salohiyat va imkoniyatlarga ega. Shunday ekan oldimizda turgan muhim vazifalardan biri, O'zbekistonning ziyosat turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini va istiqbollarini tadqiq qilish hisoblanadi.


Ziyosat turizmini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollarini belgilash maqsadida turizm ob'ekti sifatidagi "ziyosat" atamasining mohiyati va tabiatini anglab olish lozim. Adabiyotlarda bu atamaga turlicha ta'rif berilib, uning xususiyatlari hali-hanuzgacha to'liq yoritilmagan. Biz mazkur dissertatsiya ishimizda xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchi va amaliyochilarning ziyosat turizmiga bergan ta'riflarini o'rganib, ilmiy mushohadalar asosida "ziyosat turizmi" tushunchasining takomillashgan ta'rifini ishlab chiqdik.

Bizning fikrimizcha ziyosat turizmi - ma'lum bir din vakillarining o'z dini uchun muqaddas sanalgan joylarga, tarixiy, madaniy va tabiiy resurslar bilan bog'liq bo'lgan muqaddas qadamjolarga, o'ziga xos ziyosat jozibadorligiga ega ob'ektlarga turistlarning tashriflarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan turistik faoliyatdir. Ziyosat turizmi bilan bog'liq faoliyat bevosita ziyosat

⁵ O'.P.Jiyanov, Yu.R.Xudoynazarov "O'zbekiston-ziyosat turizm markazlaridan biri". Buyuk ipak yo'li chorraxasida ziyosat turizmining renessansi (ilmiy maqolalar to'plami). S.: 2019 y. -192 s.

⁶ <https://uza.uz/uz/posts/turizmni-yanada-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi-03-10-2017>

amallarini bajarish, diniy amallar bilan bog‘liq marosimlar va tadbirlarda qatnashish yoki ularni o‘rganish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda, turli din va aholi qatlamlari vakillarini nafaqat ziyorat, balki ular tashrif buyurgan joylarning tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlarini bilan tanishtirish imkoniyatini beradi (1-rasm).




1-rasm. Maqsadlar bo‘yicha diniy turizmning asosiy yo‘nalishlari⁷

Turizmning an‘anaviy yo‘nalishlardan biri bo‘lgan ziyorat turizmi hozirda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musulmon xalqlarning tez sur‘atlarda ko‘payib borishi hamda ularning daromadlarining doimiy o‘sib borayotganligi halol turizmning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuning uchun islom shariatiga mos sayohat yo‘nalishlarini tashkil etishga nafaqat musulmon davlatlarida balki dunyoning turizmi rivojlangan qator davlatlarida ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Malayziya kabi musulmon mamlakatlarida halol standartlari asosida ziyorat turizmni ommalashtirish, dunyo musulmon davlatlari orasida keng targ‘ib qilish uchun tegishli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jahonda ziyorat turizmning ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud va ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega (2-rasm).

Birinchi yo‘nalishda, ziyoratchilar o‘zlarining ma‘naviy dunyosini boyitish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va diniy bilimlarini oshirish bilan bog‘liq.

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Ko'pgina mamlakatlardagi diniy binolar bir vaqtning o'zida ularning asosiy diqqatga sazovor joylari bo'lganligi sababli, diqqatga sazovor joylar ziyorat turizmining mashhurligini yaqqol namoyon qiladi. Ikkinchi turdagi sayohatlar, ehtimol, ma'naviy motivlar asosida sayohat qiladigan odamlarga mos keladi.



2-rasm. Ziyorat turizmining asosiy yo'nalishlari va asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlanishi⁸

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish holati va uni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” deb nomlangan ikkinchi bobida ziyorat turizmi resurslari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari, ziyorat turizmini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, rivojlantirish va tartibga solishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari hamda Samarqand viloyatida diniy qadamjolar va ziyoratgohlarga tashriflar soni o‘zgarishining tahlili va prognoz parametrlari kabi masalalar tadqiq qilingan.


Turizmning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turistik imkoniyatlarning shakllanishi va ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun ularning iqtisodiy tomonlari bilan birga ijtimoiy jihatlarini ham inobatga olish lozim bo'ladi. Ushbu talabdan kelib chiqib ziyorat turizm imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni quyidagicha tasniflashni tavsiya qilamiz (3-rasm).

Tadqiqotlar natijasida ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi ishlab chiqilgan hamda ushbu tasnif doirasida turistik xarajatlar rentabelligi, turistik resurslar rentabelligi, ziyorat

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

turizm resurslarida band bo‘lgan xodimlarning umumiy band aholidagi hisyasi va joriy yilda ziyorat turizm resurslarida yangi ish o‘rinlarining umumiy yaratilgan ish o‘rinlaridagi hissasini aniqlash usullari taklif qilingan.

“Bugungi kunda qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an‘analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go‘shalari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb etayotgan O‘zbekiston turizm industriyasi hamda infratuzilmasi yanada rivojlanmoqda”⁹. Bu esa, mamlakatimizda turizmning barcha turlarini, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish, ziyoratchi turistlarga ziyoratlari uchun quylayliklar yaratish, ziyorat obektlarining ma‘lumotlar bazasini yaratish, ulardan maksimal darajada foydalangan holda jozibador turistik marshrutlar ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.



3-rasm. Ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tasnifi¹⁰

Mamlakatimizga nafaqat islom dini vakillarini balki boshqa din vakillarini ham ziyorat maqsadlarida jalb qilish mumkin. Bu esa, dunyoning turli joylaridagi ziyorat turizmi ixlosmandalarining mamlakatimizga turistik oqimini ko‘paytirish imkonini beradi. Xususan, Farg‘ona viloyatining Quvasoy buddizm obidasi, Surxondaryo viloyati Zurmala, Dalvarzintepa, Qoratepa, Kampirtepa va b., Toshkent shahridagi Budda ibodatxonasi kabilar buddizm dini vakillarini o‘ziga jalb qiladi.

⁹ A.A.Xudoyorov O‘zbekiston turizm industriyasida ziyorat turizmining rivojlanish istiqbollari. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlarning joylashtirilish holati¹¹

Hududlar	<i>Ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soni</i>											
	2019				2020				2021			
	Jami	Shu jumladan			Jami	Shu jumladan			Jami	Shu jumladan		
		O'zbekiston fuqarolari	MDH mamlakatlari dan	Uzoq xorijiy mamlakatlardan		O'zbekiston fuqarolari	MDH mamlakatlari dan	Uzoq xorijiy mamlakatlardan		O'zbekiston fuqarolari	MDH mamlakatlari dan	Uzoq xorijiy mamlakatlardan
O'zbekiston Respublikasi	105221	57452	12881	34888	42182	28022	4626	9534	27045	19270	1988	5787
Qoraqalpog'iston Respublikasi	733	649	29	55	3071	3066	0	5	563	283	62	218
viloyatlar:												
Andijon v.	574	540	17	17	412	388	3	21	1223	1075	94	54
Buxoro v.	28966	16229	2627	10110	3099	2876	109	114	1513	1300	142	71
Jizzax v.	1479	1219	201	59	579	530	29	20	18	18	0	0
Qashqadaryo v.	2661	1416	224	1021	224	177	47	0	1151	1065	10	76
Navoiy v.	444	180	6	258	39	3	27	9	382	56	133	193
Namangan v.	754	705	0	49	0	0	0	0	135	77	32	26
Samarqand v.	30037	16489	5524	8024	7650	6034	616	1000	8559	5918	928	1713
Surxondaryo v.	2697	1341	162	1194	1713	441	83	1189	3278	1274	147	1857
Sirdaryo v.	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Toshkent v.	182	113	48	21	55	25	10	20	4104	3136	0	968
Farg'ona v.	8341	1118	361	6862	130	45	22	63	157	51	9	97
Xorazm v.	16706	15921	118	667	3456	3314	35	107	3728	3183	218	327
Toshkent sh.	11647	1532	3564	6551	21754	11123	3645	6986	2234	1834	213	187

¹¹ "O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" statistik byulletenining 2019-2021 yillardagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

Yurtimizning har bir hududi ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyat va imkoniyatlarga ega. Shu tufayli bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va yetarli darajada shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

O'zbekistonnig har bir hududi o'ziga xos tarzda ziyorat turizmi jozibadorligiga ega. Ammo, mazkur turistik salohiyatdan hududlar kesimida bir xil darajada samarali foydalanilmayabdi. Asosan bugungi kunda turistik markazlar maqomiga ega bo'lgan hududlargagina asosiy turistik marshrutlar ishlab chiqilmoqda xolos.

Bugungi kunda ziyorat turizmining hududlar kesimida tashkil qilinishi va rivojlanishi ma'lum bir ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va infratuzilma omillari ta'siri ostida amalga oshiriladi. Shu tufayli, dissertatsiya ishida "ziyosat turizmi salohiyati samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillari tizimi" ishlab chiqilgan.

Har qanday faoliyat, jarayon u qanday ko'lam va hajmda bo'lmasin ma'lum bir omillar tizim asosida shakllanadi hamda rivojlanadi. Xuddi shuningdek, turizm sohasi va uning alohida turlarini, xususan ziyorat turizmi ham o'ziga xos omillar tizimi ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Statistik ma'lumotlariga e'tibor berar ekanmiz, mamlakatimiz hududlari bo'yicha ichki turizmning rivojlanishida diniy joylar va ziyoratgohlarga amalga oshirilgan safarlar soni ko'rsatkichi barqaror o'sish tendensiyalariga ega emas. Shuningdek, mamlakatimiz hududlari kesmida ham noteks rivojlanish tendensiyasiga ega.

Bugungi kunda, «...yurtimizda islom diniga oid 784 ziyoratgoh, nasroniylik diniga oid 19 hamda buddaviylikka oid 8 madaniy meros obekti mavjud»¹². Bu imkoniyatdan foydalanib, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi ziyoratchi turistlar oqimini oshirishimiz va buning natijasida bir necha yuz million dollarlik xizmatlar eksportini ta'minlashimiz mumkin.

Tadqiqotlarimiz natijasida, safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida ziyorat maqsadida tashrif buyurgan ziyoratchilar (turistlar)ning joylashtirilish holati (1-jadval) tahlil qilindi.


1-jadval ma'lumotlari bo'yicha birgina 2021-yilgi natijalarga ko'ra safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilganlar ichida ziyorat maqsadidagilar ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich bilan birinchi o'rin Samarqand viloyatiga va ikkinich o'rin Xorazm viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Sirdaryo viloyatida esa umuman ziyorat maqsadidagi turistlar joylashtirilmagan. Shuningdek, Respublika bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlarning 71,3% O'zbekiston fuqarolari, 7,4% MDH mamlakatlari fuqarolari va 21,4% uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

4-rasm ma'lumotlariga ko'ra, safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar hamda ular ichida ziyorat maqsadidagilar ulushi ham noteks rivojlanish tendensiyalariga ega.

¹² <https://yuz.uz/news/ziyosat-turizmini-rivojlantirishning-dolzarb-masalalariga-bagishlangan-xalqaro-davra-suhbati>

2021-yilgi statistik ma'lumotlar ko'ra, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurgan joylashtirilganlarning jamiga nisbatan ulushi bo'yicha, eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (31,6%), Toshkent (15,2%) va Xorazm (13,8%) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Sirdaryo, Jizzax, Namangan va Farg'ona viloyatlari esa mos ravishda 0,0%, 0,1%, 0,5% va 0,6 % bilan qoniqarsiz natijaga erishgan. Vaholangki, ushbu viloyatlarda ham ziyorat turizm resurslari yetarli darajada shakllangan va ushbu turizm turini rivojlantirish, turistik oqimni oshirish uchun asos bo'la oladi. Ammo, tahlil natijalari ushbu hududlarning ziyorat turizmi salohiyatidan deyarli foydalanilmayotganligidan dalolat bermoqda.



4-rasm. Joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlarning 2019-2021 yillar davomidagi joylashtirilish holati (jamiga nisbatan %da)

Tadqiqot olib borilayotgan mavzuning mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot mazmunini to'liq ochib berish maqsadida ma'lum bir ko'rsatkichlarning prognozi bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda qiyoslangan tarzda qarab chiqishga qaratilgan. Chunki tadqiqot olib borilayotgan masalaning bugungi kundagi dolzarbligi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar talabiga mos holda ob'ektiv zaruratdan kelib chiqmoqda.

Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni $Y(TS)$ ning mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soniga bog'liq modeli uchun korrelyatsion matrisasi ishlab chiqildi, tegishli hisob kitoblar amalga oshirildi.

Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni $Y(TS)$ ning mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soniga bog'liq modeli uchun korrelyatsion matrisasiga ko'ra $Y(TS)$ o'zgaruvchining $Y(TBS)$ hamda $BVar(0,1)$ o'zgaruvchalar bilan korrelyatsion munosabati ularning tizimli modelda ishtirokini cheklamaydi. Bunda quyidagi modelni ko'rib chiqamiz:

$$Y_{TS} = a_0 + a_1 Y_{TSB} + a_2 BVar \quad (1)$$

Bu yerda Y_{TS} – diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni, ming kishi, Y_{TBS} – mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soni, kishi, $BVar(0,1)$ – binary o‘zgaruvchi.

(1) baholash modelining parametrlari va adekvatlik ko‘rsatkichliklaridan kelib chiqib, uning elastiklik koeffitsiyentlari 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotimiz jarayonida Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni - $Y(TS)$, hamda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soni - $Y(TBS)$ ning 2023-2026 yillar uchun o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun bir necha turdagi modellar ishlab chiqildi. Ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro korrelyatsion zichligi yo‘qori ekenligi chiziqli sodda regression modellarni ishlab chiqish amaliyotini cheklab qo‘yishi, ishimizda vaqtli qator modellaridan foydalanishni taqoza etdi.

2-jadval

Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni $Y(TS)$ ning mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soniga bog‘liq baholash modelining elastiklik koeffitsiyentlari

Masshtabli koeffitsentlar. Sana: 01.03.23				
Vaqt: 14:02 Na'muna: 2010 2022 Kiritilgan kuzatishlar: 13				
№	O‘zgaruvchilar	Koeffitsent	Standartlashtirilgan koeffitsent	Jarayonlar bo‘yicha elastiklik
1	Y_{TBS}	0.032555	0.441308	0.337829
2	BV_{AR}	837.6326	0.416371	0.400424
3	C	379.0673	NA	0.261748

Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni $Y(TS)$ bo‘yicha tuzilgan adekvat modelni formal holda quyidagicha yozish mumkin

$$(1 - L)^2 Y_{TS_t} = 11,58 - 0,965(1 - L)^2 Y_{TS_{t-1}} + 0,91 \varepsilon_{t-1} - 0,89 \varepsilon_{t-3} \quad (2)$$

Samarqand viloyatidagi mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soni $Y(TS)$ bo‘yicha Tuzilgan adekvat modelni formal holda quyidagicha yozish mumkin

$$(1 - L)^2 Y_{TBS_t} = 240,91 - 0,615(1 - L)^2 Y_{TBS_{t-1}} - 2,059 \varepsilon_{t-1} \quad (3)$$

Prognozlashtirish natijalariga ko‘ra Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni 2026-yilda 2010-yilga nisbatan 4,3 baraobarga oshib 4003,4 ming kishiga yetishi ta’minlanib, prognoz davridagi o‘rtacha o‘shish sur’ati 106,5 foizni tashkil etadi.

Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soni 2026-yilda 2010-yilga nisbatan 8,9 baraobarga oshib 60925 kishiga yetishi ta’minlanib, prognoz davridagi o‘rtacha o‘shish sur’ati 109,7 foizni tashkil etadi.

Samarqand viloyatidagi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar va mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar sonining prognoz ko‘rsatkichlari¹³

Ko‘rsatkichlar	Prognoz yillari				O‘rtacha o‘sish sur‘ati, foizda	2026 yilda 2010 yilga nisbatan, barobar
	2023	2024	2025	2026		
Diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar soni - Y_{TS}	3289,7	3478,2	3780,6	4003,4	106,45	4,3
Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyurganlar soni - Y_{TBS}	46265	50659	55668	60925	109,67	8,9

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda ziyorat turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llari va istiqbolli yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida, ziyorat turizm xususiyatlari va talablari asosida “Ziyorat turizmida xizmat ko‘rsatuvchi shaxs modeli”ni yaratish, ziyorat turizmini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va “Virtual ziyorat olami”ni tashkil qilish yo‘llari hamda ziyorat turizm motivlari va ular asosida yangi yo‘nalishlardagi ziyorat turizmi marshrutlarini ishlab chiqish yo‘llari tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda turizm sohasini jadallik bilan rivojlantirish bo‘yicha ko‘pgina amaliy ishlar olib borilmoqda. Ammo ayrim muammolar ham mavjudki, bu muammolar soha uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash orqali o‘z yechimini topadi. Ushbu muammolar sirasiga turizm sohasining turizm turlari kesimida to‘liq malakali kadrlar bilan ta‘minlanmaganligini, turizmi rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalangan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, turizmning alohida turlari va yo‘nalishlari kesimida kadrlarning malakasini xorijiy rivojlangan mamlakatlarda oshirish zaruratining mavjudligi, mavjud tayyorlangan kadrlarning aksariyati to‘liq kasbiy bilimlarga ega emasligi va til bilish darajasining pastligi bilan belgilanadi.


Malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning aniq ko‘rinishi bevosita kadrlarni sifatli va samarali tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim. Shu tufayli, bugungi kunda turizm sohasida turizmning alohida turlari hamda yo‘nalishlari uchun malakali kadrlar tayyorlash turizm sohasini barqaror rivojlantirishning asosiy va ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham, “turizm sohasi uchun malakali va tajribali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligining o‘sishiga, mamlakatning barcha hududlaridagi turistik salohiyatdan foydalanish imkoniyatining oshishiga,

¹³ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

mamlakat hudularini bir turistik mahsulot va bir turistik yo‘nalish doirasida birlashtirishga”¹⁴ katta yordam beradi.

Turistik firma va korxonalar, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlarini jahon andozalari asosida, turizmi rivojlangan mamlakatlarning kadrlar tayyorlash tizimi tajribalari asosida tayyorlash, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu esa quyidagi tizimli ishlarni tashkil qilish va ma’lum bir imkoniyatlarni ishga solish zaruratini tug‘diradi (5-rasm).

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aytish joyizki, har qanday soha va tarmoqlar kabi turizm sohasi, turizmning alohida turlari bo‘yicha ham malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish lozim bo‘lmoqda. Xususan, bugungi kunda turizmning asosiy va eng istiqbolli turlaridan hisoblangan ziyorat turizmini kadrlar bilan ta’minlash, turizm turlariga mos kadrlar modelini yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.



5-rasm. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi yo‘nalishlari¹⁵

Inson faoliyatining barcha sohalaridagi kabi, turizm sohasida ham turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning aql zakovati, bilimi, tajribasi, mas’uliyatliliigi, o‘z ustida ishlashi kabi xususiyatlariga e’tibor kuchaymoqda.

¹⁴ Beknazarov F. Xizmat kursatish va turizm uchun kadrlarni tayyorlash masalalari // Xizmat ko‘rsatish sohasi: rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Samarqand, SamISI 2016 yil 252-257 b.

¹⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Turizm industriyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, xodimlar uning mahsuloti tarkibiga kiradi. Turizm sohasida olib borilgan iqtisodiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, turizm tashkilotini boshqarishni takomillashtirish haqida gap ketganda, atrof-muhit muammolari, bozor, raqobatchilar, mijozlar va boshqalarga alohida e'tibor qaratiladi, ammo asosiy sa'y-harakatlar turizm va uning xodimlariga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.


Turizm sohasida kadrlar yakuniy mahsulotning eng muhim tarkibiy qismi, turistik korxonalarining raqobatdosh ustunliklarining asosiy resurslaridan biri hisoblanadi. Shu tufayli turistik korxonalar va tashkilotlarda xizmat ko'rsatish sifati xodimlarning egallagan malakasi, tajribasi va ularning onglilik darajasiga bog'liq. Turizm sohasidagi xizmatlarni tashkil qilish va ko'rsatish jarayonlarida turistlarning xizmatlarga bo'lgan qoniqishiga xodimlarning xushmuomalaligi, odob-axloqi, bilimi, chaqqonligi va uning sezgirliги bilan erishiladi. Shunday qilib, xodimlarni samarali boshqarish turistik korxonalarining eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bu esa, turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi shaxs modelining shakllantirilish zaruratini tug'diradi. Shu tufayli, tadqiqotlarimiz natijasida "Ziyorat turizmida xizmat ko'rsatuvchi shaxs modeli"ni ishlab chiqdik (6-rasm).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, eng yuqori reyting muloqot qobiliyatlari, natijalarga erishishga e'tibor berish, mijozlarga e'tibor, mas'uliyat, stressga chidamlilik, aniqlik, ehtiyotkorlik va turistik korxonaga sodiqlik kabi shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlariga berilgan. Bu talablar turizm sohasida xodimlar tomonidan yo'l qo'yilgan xato mijozning keyingi tanloviga va uning xizmat ko'rsatish sifatidan qoniqishiga ta'sir qilishi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida, axborot texnologiyasidan foydalanishni samarali yo'lga qo'ymasdan, uning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanmasdan turistik faoliyatni rivojlantirish imkoniyati mavjud emas. O'zbekistonda ziyorat turizmi sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yana bir yo'nalishi multimediya texnologiyalarini tatbiq qilish, elektron kataloglar, qo'llanmalar va ma'lumotnomalarni yaratish, internet yoki axborot terminallari orqali harakatga keltirish hisoblanadi.

Bugungi kunda avtomatlashtirilgan marshrutlarni rejalashtirish va navigatsiya tizimlari ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Ammo, so'nggi yillarda turistik jarayonlarini avtomatlashtirish juda yuqori darajaga yetib, ko'plab axborot tizimlari va vositalari turistik sayohatlarni eng kichik detallarga qadar rejalashtirishga imkoniyat yaratmoqda.

